

BOG'LARDAGI SUV INSHOOTLARI VA BOG'LAR SEMANTIKASI

To'rayeva Nilufar Nortoqi qizi  
Termiz davlat universiteti  
"Arxitektura va qurilish" fakulteti o'qituvchisi  
Sayfiddinov Faridun  
Termiz davlat universiteti talabasi  
Telefon: +998 (99) 224-44-42  
+998(99) 716-71-76

**Annotatsiya:** *Tabiiy quyosh issiqligi, suv ta'minoti.*

**Kalit so'zlar:** *"jannat al-firdaus", Sersoya, "jannat ariqlari", "jannat bog'i", chorchamanni.*

Bog'ning bog' bo'lishi, yashab gurkirashi uchun birinchi navbatda suv masalasi to'g'ri hal qilingan bo'lishi lozim. O'tmishda bunyod etilgan bog'lar daryolardan qazilgan kanallar, maxsus rezervuarlar, tabiiy buloqlar suvi, ko'llar, katta ariqlar suvi bilan sug'orilgan. Kanallardan tortilgan ariqlar nafaqat bog'larni, balki bog'lardagi hovuzlarni ham suv bilan ta'minlagan. Ariqlarga uzilib tushgan turli rangdagi olmalar ariqlardan hovuzlarga oqib, kishi ko'zini quvontirgan.




**1-rasm. Alisher Navoiy davri Hirot shahri (histori)ning yuqoridan ko'rinishi.**

Hirot bog'lari Injil kanali va undan tortilgan ariqlar, bog'lar ichidagi hovuzlar orqali suv ichgan. Injil kanalidan uning har ikki sohiliga qarab ariqlar tortilgan. Eng katta ariq Bog'i Jaxonaro bog'iga kirib borgan. Har bir bog'ning bog'boni bog' ekinlari va hovuzlarini suv bilan ta'minlab turgan. O'rta asrlarda bog'lardagi suv ta'minoti va qurilmalarining me'morniy-muhandislik yechimlari tinmay takomillash-tirilib borilgan. Temuriylarning bunyod etgan bog'laridagi murakkab suv qurilmalari bunga misoldir.

Hududi notekis, ya'ni bir necha sahnlariga ega bo'lgan pog'onasimon chorbog'larning ekinlari toq etaklaridagi tabiiy chashma buloqlar va sharsharalar suvlaridan maxsus ariqlar olinib, sug'orilgan. Bir pog'onadan pastagi pog'onaga suv sharshara ko'rinishida oqib tushgan.

Pog'onalar hududi bir - biriga tirgak devorlar yoki qiyaliklar bilan qo'shilib ketgan. Balandliklarga suv charxpalaklar, chig'irlar va boshqa gidravlik qurilmalar bilan chiqarilgan.



**2-rasm.** Hirotlik Rozil Heraviy Alisher Navoiy buyurtmasi bilan agrotexnika va me'moriy bog'larni yaratish bo'yicha **"Iroshod uz-ziroat fi ilmil-xarosat" (Ekin ekish yo'riqlari va dehqonchilik ilmi)** nomli 8 bobdan iborat kitob yozadi. Uning sakkizinchi bobi **"Daraxtlarni bog' rejasiga moslab ekish haqida"** deb atalib, unda bog'larni muntazam reja, ya'ni **Chorbog' uslubida** to'g'ri va keng xiyobonlar bilan yaratish zarurligi, bog'ning shakli to'g'ri burchakli bo'lishligi, ufq tomonlariga orentatsiyalanishi, bog' devor bilan aylantirilgan va perimetri bo'ylab qatorlab tollar ekilishiga ko'rsatma berilgan. Bog' ekinlari uchun manzarali va mevali daraxtlar taklif etilgan. Bog'da gullar erta bahordan to kech kuzgacha uzluksiz ochilib turishi aytilgan.

Ma'lumki, Chorbog' uslubidagi bog'lar tarhiy yechimida o'rtada joylash-gan katta hovuz yoki favvoradan toshib tushgan suv ufqning to'rt tarafiga qarab yo'naltirilgan to'rtta "jannat ariqlari" bo'ylab oqadi va to'rtta "jannat bog'i" - chorchamanni tashkil qiladi: "bitta ariqdan suv oqsa, ikkinchisidan sut, uchinchisidan asal, to'rtinchisidan esa sharob oqqan," - deb yozadi Emma Klark o'zining "Islom bog'chilik san'ati" kitobida. Qur'oni Karimda tasvirlangan bu bog' "jannat al-firdaus"ni, chorbog'ni, markaziy hovuz va undan to'rt tarafga oqqan ariqlarni eslatadi.

Suv hayot manbai hisoblangan issiq Sharq mamlakatlari bog'larida suv yuzasiga soya tushurishdan ko'ra uning o'zini tomosha qilish afzal sanaladi. Shuning uchun ham suv havzalarining yuzi kengroq, daraxtlar esa ularning sohillariga emas, balki chetlariga qatorlab ekilgan. Havzalarni suv bilan ta'minlovchi o'q ariqlarni esa aksincha, tor, ensiz qilishga harakat qilingan. Ularning chetlariga qatorlab soyapar daraxtlar ekish an'ana bo'lgan.

Bog'lar landshaftining asosiy tamoyillaridan biri ko'kalamlarning aolohida vazifaviyligi, bog'ning go'zallik va badiiy landshaft kompozi-tsiyalari, dilni hushnud qiluvchi tushunchalari esa me'moriy mutanosiblik tizimiga asoslangan.

Alisher Navoiy o'zining bunyodkorlik faoliyatini shaharsozlik ansabillari, memorchilik, bog'-istirohatchilik, qisman buzilgan tamir talab imoratlarni qayta tiklash va me'moriy

tamirlash, davolash va shifobaxsh muassasalar (shifoxona, xammomlar), ibodat xayriya inshootlari (masjidlar, karvon-saroylar, xonaqohlar, bozorlar) qurish, ariq va kanallar qazish, hovuzlar, ko‘priklar yaratish hatto tasviriy sanat va naqqoshlik kabi ishlarda, xullas o‘zi yashagan davri ijtimoiy hayotining barcha sohalarini qamragan holda, o‘ta keng ko‘lamda olib bordi. Navoiy bu ishlarni nafaqat poytaxt Hirotida, balki Mashhadda, Marvda, Astrobotda, Mozore Sharfda, Isfizor va Saraxs, Guzurgoh kabi shaharlar va mavzelarda olib borib, ayni paytda, el-yurt mamurchiligi va farovonligiga avj berdi.



**3-rasm. Hirot histori hududidagi Ixtiyoriddin shahar qal’asi va shahar ulkan jome masjidlarining yuqoridan ko‘rinishi. Ular hozirgacha saqlanib qolgan.**

Chorbog‘ning kelib chiqishi, fikrimizcha, quyidagi mulohazalarga aloqador. Sharq mamlakatlarida, ayniqsa, qadimgi Eron hududida yaratilgan xalq afsonalarida atrofi baland va qalin devorlar bilan to‘silgan Jannat bog‘lari haqida ta’rif qilinadi.

Jannat bog‘lari ta’rifidan kishi zavqlanadi, dili yayraydi. Hatto boqqa kirib, holi qolishni orzu qiladi. Negaki, bunday bog‘da yilning barcha fasllarida ham yam-yashil dov-daraxtlar, buta va atirgullar, chamanlar mavjud. Sersoya xiyobonlar, halganchaklar, sharqirab oqayotgan zilol suvlar - Obi zamzam, maftunkor favvoralar, shalolalar hovuzlarda baliqlar, o‘rdaklar, bog‘da esa ohu va kabutarlar, bulbulu tovuşlar yayrab yuradi. Bog‘ ichida moviy ko‘l, ko‘l o‘rtasida daraxtlarga burkangan orolcha, bog‘ markazida esa ko‘rkam va mahobatli chir ayvonli ehrom, uning atrofida go‘zal ko‘shklar, supa va hovuzlar bor. Ushbu hovuzlardan to‘rt tarafga ketgan ariqlar, ariqlarda qalqib oqqan oq va qizil olmalar...

Navoiy ham o‘z asarlarida jannat oroyishli bog‘larni bir necha bor tasvirlagan. “Saddi Iskandariy”da: *“... bog‘ tarovati yashil osmon singari beg‘ubor, unda ochilib yotgan har bir gul yulduzni eslatar edi. Bog‘dagi daraxtlar to‘rt devordan, devor emas, zarkor osmondan ham oshib ketgan... Daraxtlarning tagida chaman-chaman bo‘lib gul-chechaklar ochilib yotibdi... Lola bilan ko‘k maysalar bamisoli naqshin gilam, oq gullar esa shu gilam ustiga to‘kilgan kumushni eslatar edi... Bu gulshan ichida keng joy bo‘lib, bu joyning o‘rtasida bir baland imorat qurilgan. Uning sahnalari ravoq va shifllari boshdan-oyoq oltin bilan ziynatlangan.*

*Uning g'ishtlari chinni g'ishtlar bo'lib, tiniqlikda xuddi Chin oynasiga o'xshar edi. Qasrning ichi boshdan oyoq zarnigor qilingan, eshiklarning hammasi gavhar bilan ziynatlangan...*”, - deb yozadi.

Bu hikoyalardagi jannatsimon bog'lar, darhaqiqat orzu umidlarimiz-ning necha asrlardan beri dilimizda saqlanib kelayotgan ramzi sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi.



**4-rasm Hirot jome masjidi oldidagi xiyobon va gulzorlar chorbog' uslubida bunyod etilgan.**

Bog'ni to'rt qismga bo'luvchi ariqlar, bog' o'rtasidagi supa, favvora yoki manzarali ko'rkam, masalan, sarv daraxti va birin ketin ochiluvchi gullar, daraxtlardagi g'arq pishgan mevalar jannat ramzini eslatgan. Temuriylar o'zlarining bog'larini dil ochuvchan va ertaknamo bo'lishligi uchun ularni chiroyli hayvonotlar bilan bezaganlar. Bog'da sayr qilib yurgan ohu va tovuqlar, hovuzlarda suzib yurgan, baliqlar o'rdak va g'ozlar shular jumlasidandir. Tovuslar Navoiy ta'biri bilan aytganda, bog'lar bezagi uchun yaratilgan maxsus qushlar bo'lib, Temuriylar va shoir yaratgan bog'larda turli xil shunday qushlar bo'lgan. Klavixo ham Temurning Samarqanddagi Davlatobod bog'ida ohu va tustovuqlar bo'lganligidan dalolat beradi. Bog'lardagi hayvonot olamini ko'pgina nafis miniatyuralarda ham uchratish mumkin. Hirot bog'larining birini maxsus Hovuzi Mohiyon - Baliqlar hovuzi bezagan. Bog'larda kabutarlar va bedanalar uchib yurgan. Bunday jonzotlar Sharq bog'lari husniga husn qo'shgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Beknazarova M.-O'zbekistonda Gulchilikni rivojlantirish va landshaft arxitekturasiga tadbqiq etish. 2022-y.
2. A.S.Uralov. Landshaft arxitekturasini. "Cho'pon". Toshkent. 2014-y.
3. To'rayeva N. Qishki bog' qurilishi va o'stiriladigan gullar. 2022-y
4. Xoldorov X.N., To'rayeva N.N. Xurosonda Navoiy davrida bunyod etilgan muhandislik va irrigatsiya inshootlari.//Me'morchilik va qurilish muammolari. Ilm.tex. jurnali, №2.2022.-21-24 betlar.

5. Xoldorov X.N. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro davri bog'lari.//Alisher Navoiy xalqaro jurnali.3-qism.-T.,2022.B.95-102.
6. To'rayeva N. Bog'lardagi yashil dunyo va fauna.
7. .Uralov A.S. ,Xoldorov X.N., To'rayeva N.N.Xurosonda Navoiy davrida bunyod etilgan muxandislik va irrigatsiya inshootlari // Me'morchilik va qurilish muamollari ilm.tex.jurnali, №2,2022.-19-21 betlar.
8. Beknazarova M.-Gulzorlar va ularning kompozitsion elementlari.Central Asian Journal Of Arts And Design. <http://cajad.centralasianstudies.org/index.php/CAJAD> 2022-y.
9. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/2725>
10. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=sGA2490AAA&citation\\_for\\_view=sGA2490AAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sGA2490AAA&citation_for_view=sGA2490AAAAJ:2osOgNQ5qMEC)